

O'QUV DASTURINING PASPORTI

Ushbu o'quv dastur Sog'liqni Saqlash vazirligining uzluksiz tibbiy-farmatsevtik ta'lim Koordinatsion kengashining 2025 yil 14 avgust IXT - 150 3- sonli protokoli asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2030 yilda tugaydi.

O'quv tashkilotining nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
Kafedra/ bo'lim	Shoshilinch tibbiy yordam		
O'quv dasturining nomi	"Toksikologiya"		
O'qish turi	Ixtisoslik kursi		
O'quv dasturi mualliflari	Xadjibayev A.M., Alijanov F.B., Stopnitskiy A.A., Madiyev R.Z.		
Kursning o'qish hajmi	720 kredit		
Kurs o'qituvchilari va murabbiylari			
 Xadjibayev A.M. - professor, tibbiyot fanlari doktori, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi shoshilinch tibbiy yordam kafedrası mudiri	 Tulyaganov D.B.. - f.f.d., RIPIATM Shoshilinch tibbiy yordam kafedrası dotsenti	 Sharipova V.X. - t.f.d., shoshilinch tibbiy yordam kafedrası professori TJRKTMZ	 A.A.Stopnitskiy - tibbiyot fanlari nomzodi, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi shoshilinch tibbiy yordam kafedrası dotsenti
 Maxamadaminov A.G. - t.f.n., MTRK SHTYO kafedrası dotsenti			
Maqsad	Amaliy tibbiyot tamoyillariga muvofiq klinik toksikologiya sohasidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'rganish, ya'ni toksikologiya tizimlashtirilgan nazariy bo'limlarini o'rganish va o'zlashtirish, kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan o'tkir zaharlanishlarni tashxislash, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, davolash va oldini olish bo'yicha asosiy kompetensiyalarni egallash.		
Kursga taklif qilingan mutaxassislar: kontingent	Shoshilinch tibbiy yordam shifokorlari, jarrohlar, kardiologlar, ekstrakorporal detoksikasiya shifokorlari, narkologlar (internatura, klinik ordinatura, magistratura yoki birlamchi ixtisoslik bo'yicha zarur hujjatlarga ega bo'lganlar).		

Kurs vazifalari	- Zaharlarning toksik ta'sir mexanizmlarini o'rganish - Zaharlarning toksikokinetikasi va toksikodinamikasini o'rganish - Zaharlanishlarni tashxislash va davolashni o'rgatish: - Zaharlanishning oldini olish bo'yicha o'qitish: - Turli xil zaharlarni o'rganish: - Toksikologiya bo'yicha ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bazalari bilan ishlash ko'nikmalarini egallash: - Toksikologiya sohasida mustaqil ishga tayyorgarlik
Kurs tarkibi	1. Modul. O'zbekiston Respublikasida shoshilinch tibbiy yordam tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. 2. Modul. Introduction to toxicology. Kimyoviy etiologiyali kasalliklar diagnostikasi. O'tkir zaharlanishlarda patologik sindromlar. Kasalxonagacha bo'lgan davrda o'tkir zaharlanishni davolashni tashkil etish va tamoyillari. 3/ Modul. O'tkir zaharlanishda reanimatsiya va intensiv terapiya asoslari. 4. Modul. Ekstrakorporal detoksikasiya usullari (gemosorbsiya, plazmosorbsiya, gemodializ, plazmoferez). Ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. 5. Modul. Psixofarmakologik ta'sirga ega moddalar bilan zaharlanish. Barbitur kislotalari bilan zaharlanish. Tritsiklik antidepressantlar (TAD) bilan zaharlanish. Neyroleptiklar bilan zaharlanish. Narkotiklar bilan zaharlanishlar Antikonvulsantlar bilan zaharlanishlar. 6. Modul. Fosfororganik birikmalardan zaharlanish. Diagnostika va intensiv terapiya xususiyatlari. 7. Modul. Alkogol va uning surrogatlaridan zaharlanish. Diagnostika va intensiv terapiya xususiyatlari. 8. Modul. Kuydiruvchi moddalar (ishqor va kislotalar) dan zaharlanish. Diagnostika va intensiv terapiya xususiyatlari. 9. Modul. O'simlik va hayvonlar zaharlari bilan zaharlanish. Diagnostika va intensiv terapiya xususiyatlari. 10. Modul. Zaharli gaz va bug'lardan zaharlanish. Diagnostika va intensiv terapiya xususiyatlari. 11. Modul. Og'ir metall tuzlari bilan zaharlanish. Diagnostika va intensiv terapiya xususiyatlari.

O'quv bazalari

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi.



Amaliy mashg'ulotlar uchun bo'limlar

